



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



DUNYONING YANGI SIYOSIY TARTIBOTIDA DINLARNING O'RNI

Sabirjanova M Dilshad qizi

Bakalavr talabasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

Universiteti Tashkent, Uzbekistan

E-mail: sobirjonovamuhsina63@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi yangi siyosiy jarayonda dinning siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'rni tahlil qilingan. XXI asrda dunyoviy siyosiy tartibotni shakllangani, davlat demokratik tamoyillar asosida shakllanayotgan bir davrda ham din inson hayotining muhim ma'naviy poydevori bo'layotganligi ta'kidlanadi va dinning ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi ta'siri, shu bilan birga uni to'g'ri talqin etish, va zamonaviy dunyoga moslashtirish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, dinlararo muloqot va tinchlikni ta'minlash xalqaro miqyosda muhim ekanligi ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, dunyoviy siyosiy tartibot, sekulyarlik, demokratik boshqaruv, geosiyosiy tizim, diniy ekstremizm, UNESCO, xalqaro xavfsizlik.*

Annotation: *This thesis analyzes the role of religion in political and spiritual life within the new political process. It emphasizes that even in the 21st century - an era when a secular political order is being formed and states are being built on democratic principles - religion remains an essential moral foundation of human life. The work discusses the influence of religion on social and cultural processes, the importance of interpreting it correctly, and adapting it to the modern world. It also highlights dialogue and the maintenance of peace at the international level.*

Keywords: *Globalization, secular political order, secularism, democratic governance, geopolitical system, religious extremism, UNESCO, international security.*

Аннотация: *В данной тезисной работе анализируется роль религии в политической и духовной жизни в условиях нового политического процесса. Отмечается, что даже в XXI веке, когда формируется светский политический порядок и государства строятся на демократических принципах, религия остаётся важнейшей духовно- нравственной основой человеческой жизни. Рассматривается влияние религии на социальные и культурные процессы, необходимость её правильного толкования и адаптации к современному миру. Также подчёркивается важность межрелигиозного диалога и обеспечения мира на международном уровне*

Ключевые слова: *Глобализация, светский политический порядок, секуляризм, демократическое управление, геополитическая система, религиозный экстремизм, ЮНЕСКО, международная безопасность.*

KIRISH

XXI asrda dunyo siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Globallashuv, axborot



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Texnologiyalari va xalqaro munosabatlar jarayonlari natijasida inson huquqlari va demokratiyaga asoslangan yangi bir tartibot ya'ni "dunyoviy siyosiy tartibot" shakllanmoqda. Lekin, shu bilan birga, dinlar hozir ham insonlar uchun muhim ma'naviy va axloqiy tayanchi bo'lib qolmoqda. Tarixan din insonlar hayotida doimo muhim omil bo'lib kelgan. Din birinchi navbatda shaxsning muammolarini hal qilib kelgan, shuningdek, u millatlarga birlik mansublik uchun zarur bo'lgan ijtimoiy o'ziga xoslikni bergan. Bundan tashqari din insoniyatni ilm-fan va falsafa adabiyoti kabi intellektual faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qo'shimchasiga insonlar din orqali dunyoni va uning cheksiz sirlarini tushunishga harakat qilishgan. Bugungi kunda esa dinning siyosiy va ma'naviy o'rni yanada oshgan. Hozirgi globallashuv va madaniyatlar to'qnashuvi davrida din faqat insonlar uchun e'tiqod rolini o'ynabgina qolmay siyosiy madaniyat va geosiyosiy tizimda ham katta rol o'ynayapti. Ba'zi vaziyatlarda din barqarorlik va tinchlikni ta'minlovchi omil sifatida xizmat qilayotgan bo'lsa, ba'zi hollarda esa siyosiy manfaatlar to'qnashuvida va turli ekstremistik g'oyalar uchun niqob bo'lib qolyapti. Shu sababli ushbu mavzuni o'rganishdan maqsad hozirgi globallashuv davrida dinlarning xalqaro jarayonlardagi o'rnini va insonlar hayotida ularning qanday ta'siri bo'lishini o'rganishdir.

ASOSIY QISM

Hozirgi globallashuv davrida chuqur siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar tufayli hozirgi kunda dunyoviy siyosiy tartibot shakllanadi. Bu tartibot davlatni diniy boshqaruvga asoslanmagan, balki demokratik va huquqiy boshqaruvga asoslangan tizimdir. Hozirgi davrda davlatlar va ko'plab siyosiy tizimlar sekulyarlikga asoslangandir. Ular Sharh Monteyskining "Davlatning kuchi dinning kuchidan ajratilgan jamiyatgina erkinlikni saqlab qoladi" [1] (Sh.Monteyskye.1748..) degan fikrini ilgari surishadi. Ushbu fikr dunyoviy siyosiy tartibot g'oyasining tarixiy asosi bo'lgan. Agar davlat va din ajaralmasa, siyosiy erkinlik bo'lmaydi. Dunyoviylik siyosati tizimida davlat dinning tashkilotlaridan ajratilgan bo'ladi, lekin diniy erkinlik ham huquqiy normalar tomonidan himoya qilingan bo'ladi. Ya'ni Amartya Sen aytganidek: "Dunyoviy siyosat dinni rad etmaydi balki barcha e'tiqodlar uchun adolatli muhit yaratadi". [2].(Amartya.Sen.2006..) Bunday holatda din siyosat taraflama ajratilgan bo'lishi mumkin ammo ijtimoiy hayotda u o'z o'rnida qolgan va insonlarning hayotida o'z ahamiyatini saqlab qolgandir. Muhammad Iqbol aytganidek "Din-insonning ichki dunyosini uyg'otuvchi kuchdir. U jamiyatdan ajralmasligi kerak, chunki jamiyatning axloqi dindan ozuqa oladi." [3](Muhammad.Iqbol.1930..) Haqiqatdan ham dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni juda keng qamrovlidir. U yordam beribgina qolmay, balki madaniy, huquqiy, ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishda ham asosiy omil bo'lgan. Shu bois, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida dinni inobatga olish uni to'g'ri tushunish va hayotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kundagi jamiyatda global axborot oqimi dinning jamiyatdagi o'rnini muhokama qilishni ham muhim masalalarga aylantirmoqda. Ayniqsa, tarmoqlar orqali diniy ma'lumotlarni keng tarqalishi, din va diniy qadriyatlarni ko'plab chaqiriqlarga olib





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kelmoqda. Shu tufayli dinshunoslar va davlat institutlari orasidagi hamkorlikni oshirish va to‘g‘ri diniy muhit yaratish ham muhim masala hisoblanmoqda. Qo‘shimchasiga zamonaviy dunyodagi turli g‘oyalar va texnologiyalar kabi yangi hodisalar ham din bilan bog‘liq savollarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon diniy tafakkurning yangilanishi va zamonaviy dunyoga moslashishi kerakligini bildiradi. Shuningdek, “1970-yillardan boshlab yangi turdagi diniy faollik paydo bo‘ldi. Bugungi dunyoda din faqat e‘tiqod emas, balki siyosiy va madaniy jarayonlarning ham faol ishtirokchisiga aylandi” deb ta‘kidlagan Kuren Armstrong.[4](K.Armstrong 2000..). Ushbu fikr din zamonaviy siyosiy tartibotda passivmas, balki “yumshoq kuch” sifatida xalqaro muloqot va tinchlikga ta‘sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Misol uchun Vatikan va Islom hamkorlik tashkiloti kabi institutlar tinchlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo do‘stona munosabat o‘rnatish g‘oyasini ilgari surishmoqda. Umuman olganda, dinlar insoniyatni umumiy qadriyatlarga da‘vat etib, tinchlikni o‘rnatish va siyosiy muammolarni oldini olishda asos vazifasini bajaradi.

Biroq diniy omil har doim ham ijobiy rol o‘ynamagan. “Dinni zo‘ravonlik manbasi sifatida ko‘rsatish – bu tarixiy va madaniy haqiqat emas, balki siyosiy quroldir. Aslida, zo‘ravonlik diniy emas, balki siyosiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.” deb ta‘kidlaydi William.T.Cavanaugh. [5](William.T.Cavanaugh.2009..) Uning fikriga ko‘ra, ko‘plab muammolar din tufayli sodir bo‘layotgandek ko‘rinib-da, ularning ildizida iqtisodiy va siyosiy manfaatlar yotgan bo‘ladi. Afg‘oniston va Afrika muammosi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bunday holatlar din tufayli emas, balki uni siyosiy qatlam tomonidan vostiya sifatida foydalanayotganligi natijasidir. Shu tufayli yangi siyosiy dunyoda global xavfsizlik siyosatida dinlararo tolerantlikni kuchaytirish zarur hisoblanadi. Xususan Pope Francis “Fratelli Tutti” asarida aytganidek “Dinlararo muloqot bu faqat diniy majburiyat emas, balki tinchlik va inson qadr-qimmatini himoya qilishning siyosiy vositasidir.” [6] (Pope Francis.2020..). Ushbu fikrda dinlar o‘rtasidagi suhbat siyosiy mojarolarni kamaytiradi va birdamlikni kuchaytiradi. Hozirgi kunda ham BMT, UNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida o‘tkazilayotgan “Dinlararo muloqot” forumlari kabi. Ushbu forumlar, konferensiyalar xalqaro bag‘rikenglik va hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi global siyosiy muhitda ko‘plab davlat boshliqlari sekulyarlik tamoyillariga asoslangan holda ish yuritmoqdalar. Ammo bu degani dinning o‘rni insonlarning hayotida kamaygan degan ma‘noni anglatmaydi. Aksincha, hozirgi siyosiy davrda din insonlarni birlashishida va o‘z hayotini tartibga solishda va davlatlararo munosabatlar o‘rnatishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miravonovich Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyalari” da aytganidek “Din-bu ma‘naviy poydevor. Uni siyosatdan ajratish uni jamiyatdan ajratish degani emas. Biz uchun din-insonni ezgulikka, bag‘rikenglikka va mehrga chorlovchi manbadir.” [7] (Shavkat Miravonovich Mirziyoyev. 2021..) Shu boisdan, Yangi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



globallashuv dunyosida dinni chetga surish emas balki uni insonparvarlik va tinchlik poydevoriga aylantirish eng to‘g‘ri yo‘ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.L.Monteskye.Qonunlar ruhi to‘g‘risida. Parij:Libraire Garnier-Flammarion, 1748.-732b
- 2.Amartya.Sen. Shaxsiyat va zo‘ravonlik:taqdir illuziyasi.-Nyu-York:W.W.Norton&Company,2006. – 215b
- 3.Muhammad.Iqbol. Islomda diniy tafakkurning qayta tiklanishi – London:Oxford University Press, 1930.-182b.
- 4.Karen.Armstrong.Xudoning nomida:Asrlar davomida din va zo‘ravonlik. – Nyu-York:Ballantine Books,2000.-442b.
- 5.William.T.Cavanaugh. Dinning mifologiyasi:din va zo‘ravonlik haqidagi dunyoviy g‘oyani tanqid qilish. – Nyu-York:Oxford University Press,2009. -296b.
- 6.Papa Fransisk. Frantelli Tutti:Birodarlik va ijtimoiy do‘stlik haqida. – Vatikan:Liberia Editrice Vaticana,2020.-135b
- 7.Shavkat.Miromonovich.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz. Toshkent:O‘zbekiston/ - 416b.

